



Mavzu: Soʻz yasalish usullari

Oʻqituvchi: Ruzikulova G. F.




TIAME

MAVZU: SO'Z YASALISHI

Reja:

1. So'z yasalishi haqida umumiy ma'lumot.
2. O'zbek tilidagi so'z yasash usullari:
 - 1) affiksatsiya (morfologik) usuli;
 - 2) kompozitsiya (sintaktik) usuli;
 - 3) abbreviatsiya (qisqartma) usuli;
 - 4) semantik (ma'noviy) usuli;
 - 5) fonetik usul;
 - 6) takrorlash usuli.

Qo'shimchalar vazifasiga ko'ra ikki turga bo'linadi



SAVOL

- 1. Nima uchun ko`p ilmiy adabiyotlarda ikkita so`z yasash usuligina tan olingan?**
- 2. Qisqartma usulni so`z yasalish usuli sifatida tan olsa bo`ladimi?**



TIAME

SO'Z YASALISHI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

So'z yasalishi, umuman, qanday usul, qanday vosita bilan bo'lmasin yangi leksik ma'noli so'z hosil qilishdir. Masalan, *ish-chi* (-chi qo'shimchasi bilan yasalgan), *gulbeor* (2 yasovchi asosning birikuvidan yasalgan) va boshqalar. So'z yasalishi tilshunoslikning ayrim bir bo'limi sifatida so'zlarning yasalishini (yasama so'z), yangi leksik birlik hosil qilishning qonun-qoidalarini, vositalarini, so'z yasalishi strukturasi (tarkibini) tekshiradi. **Demak, bu sohaning obyekti yasama so'zdir.**

O'ZBEK TILIDAGI SO'Z YASASH USULLARI

**AFFIKSATSIYA
USULI**


**ABBREVIATSIYA
USULI**

**TAKRORLASH
USULI**

**KOMPOZITSIYA
USULI**

**SEMANTIK
USUL**

FONETIK USUL





TIAME

AFFIKSATSIYA USULI

Soʻzga soʻz yasovchi affiks qoʻshish bilan yangi soʻz hosil qilish **affiksatsiya usuli** deyiladi. Masalan, *paxtakor, sinfdosh, quvonch, doʻstlik, ochiq, tirishqoq, serjilo, ilmiy, oʻyla, kengay, shodlan, tinchi, tasodifan, oqilona, koʻpincha, ertalab* va boshqalar. Soʻz yasovchi affikslar oʻzbek tilida asosan suffiks tarzida qoʻllanib, soʻz oʻzagidan soʻng qoʻshilib keladi. Baʼzan bunday affikslar oʻzak oldiga prefiks tarzida qoʻshilib, yangi maʼnodagi soʻz yasashi mumkin. Masalan, *serhosil, serunum, badavlat, baʼmani, beminnat, begʼaraz, nooʻrin, nohaq, badfeʼl, badbashara* va h.k.

Oʻzbek tilida soʻz yasovchi affikslardan tashqari, oʻz xususiyatlari bilan affikslarga juda yaqin turadigan *xona, noma, obod* kabi soʻz-affikslar ham mavjud. Bunday soʻz-affikslar tilshunoslikda affiksoidlar deb ham yuritiladi: *ishxona, mehmonxona, oshxona, qabulxona, tabriknoma, Xalqobod, Yangiobod.*

KOMPOZITSIYA USULI

Birdan ortiq mustaqil ma'noli soʻz yoki soʻz shakllarining qoʻshiluvi, birikuvi orqali yangi soʻz yasash **kompozitsiya usuli** bilan soʻz yasash deyiladi. Bu usul bilan qoʻshma, ayrim juft soʻzlar hosil qilinadi. Masalan, *guldasta, gultojixoʻroz, asalari, tomorqa, xushfeʼl, rahmdil, olijanob, hozirjavob, havorang, eʼlon qilmoq, rad etmoq, olib kelmoq, olib chiqmoq, har gal, yonma-yon, zoʻr-bazoʻr, ketma-ket* va b.

ABBREVIATSIYA USULI

Bu usulga ko`ra, bir butun holda qo`llanadigan to`g`ri ma`noli turg`un birikmalarning qismlari har xil yo`l bilan qisqartirilib so`z hosil qilinadi. Bu usul rus tilidan kirgan bo`lib, qisqartma otlar shu usulda yasaladi: *BMT* – Birlashgan Millatlar Tashkiloti, *MDH* – Mustaqil davlatlar hamdo`stligi, *ATS* – Avtomatik telefon stantsiyasi, *ToshMI* – Toshkent meditsina instituti, *filfak* – filologiya fakulteti, *akademlitsey* – akademik litsey, *peduniversitet* – pedagogika universiteti va b.

FONETIK USUL

Bu usulga ko`ra, so`zda fonetik o`zgarish yuz berib, yangi so`z hosil qilinadi. Chunonchi, so`z urg`usining o`rnini almashtirish natijasida boshqa-boshqa so`z turkumiga doir so`zlar hosil bo`lishi mumkin: *yózma* (fe'l) - *yozmá* (sifat), *súzma* (fe'l) - *suzmá* (ot), *fízik* (ot) *fizík* (sifat), *akadémik* (ot), *akademík* – (sifat) va b.

SEMANTIK USUL

Bu usulga binoan, soʻz maʼnosida oʻzgarish roʻy berib, maʼnosi boshqa-boshqa, shaklan oʻxshash yangi soʻz hosil boʻladi: *kun* – sutkaning yorugʻ qismi, *kun* - quyosh, planeta; *koʻk* – osmon, *koʻk* - havorangga oʻxshash rang, *bir* – son, *birga*, *birdan*, *birda* – ravish, *oʻgʻil* bola (sifat) - *Oʻgʻil* keldi (ot).

TAKRORLASH USULI

Bunda soʻzlar takrorlanib yangi soʻzlar yasaladi: *paqpaq* (oʻyin), *tur-tur* (turish), *bipbip* (avtobus), *pat-pat* (mototsikl), *xola-xola* (oʻyin), *manman*, *yoʻl-yoʻl* (rang), *es-es* (zoʻrgʻa).

Takroriy soʻzlarning hammasi ham yasama emas. Bunda ham yangi maʼno yasalsagina, yasama soʻz hisoblanadi: *tez-tez*, *katta-katta* kabi takroriy soʻzlar yasama emas, bunda maʼno kuchaytirilgan, xolos.



TIAME

**E'TIBORINGIZ UCHUN
RAHMAT!**